

"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi "Yangi O'zbekiston" universitetining Kimyo va materialshunoslik muhandisligi yo'nalishi talabalari bilan uchrashdi

// 03.03.2025

[https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-yangi-o-zbekiston-univer](https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-yangi-o-zbekiston-univers)
s



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi "Yangi O'zbekiston" universitetining Kimyo va materialshunoslik muhandisligi yo'nalishi talabalari bilan uchrashdi.

Yurtimizda kimyo sanoati sohasini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilgan ushbu uchrashuvda universitetda qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, yangi grant dasturlarini joriy etish masalalari muhokama qilindi.



Boshqaruv raisi sohani yanada rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash muhimligi, bu jarayonda oliy ta'lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik zarurligini ta'kidladi, talabalar bilan kimyo va materialshunoslik sanoatidagi zamonaviy tendensiyalar borasida fikr almashib, Jamiyat tarmoq korxonalarining ish tajribasi bilan o'rtoqlashdi.



Shuningdek, xorijiy oliygohlar bilan tashkil etiladigan almashinuv dasturlarini moddiy qo'llab-quvvatlash, universitetda ilmiy laboratoriyalarni ochishda hamkorlik qilish yuzasidan kelishib olindi.



"O'zkimyosanoat" AJ "Yangi O'zbekiston" universiteti bilan Kimyo va materialshunoslik muhandisligi yo'nalishida tahsil olayotgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash doirasida ko'plab loyihalarni amalga oshirgan. Jumladan, 2023-yilda 5 nafar talabaning AQSHning Dallasdagi Texas universitetiga 4 haftalik qisqa amaliyot xarajatlari jamiyat tomonidan qoplab berilgan.



Bu kabi uchrashuvlar ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishda muhim qadam bo'lib, yosh mutaxassislarning kasbiy o'sishi uchun mustahkam zamin yaratadi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati